

ANATOMIYADAGI AYRIM LOTINCHA TERMINLARNING NOTO'G'RI TALAFFUZ ETILISHI, TIBBIYOT TALABALARIGA NOTO'G'RI O'RGATILISHI NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN OQIBATLAR HAMDA ULARNING TIBBIY - LINGIVISTIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17890259>

Bunyod Mamatvaliyev Rahmonali o'g'li

University of Business and Science "Tibbiyot kafedrası" o'qituvchisi,

Xasan Muxammadaliyev G'ayratoli o'g'li

University of Business and Science "Tibbiyot kafedrası" o'qituvchisi,

Adhamjon Ne'matullayev Xamidullo o'g'li

University of Business and Science "Tibbiyot kafedrası" o'qituvchisi,

medicbmorpholog@gmail.com

xasanmuxammadaliyev012@gmail.com

nematullayevadhamjan@gmail.com

Аннотация

Ushbu maqolada anatomiya fanida keng qo'llaniladigan "os ischii" (o'turgich suyagi), "cribrosa" (teshik, g'alvirsimon) va "incisura" (o'yma) atamalarining talaffuzi bo'yicha ilmiy tahlil keltiriladi. Lotin tilining fonetik tizimida "sh" tovushi mavjud emasligi, ammo zamonaviy tibbiyotda ushbu tovush talaffuzning fonetik soddalashtirilgan shakli sifatida ishlatilishi hamda "c" harfidan keyin "i" harfi kelsa "k" emas "s" yoki "ts" talaffuz etilishi ko'rsatiladi. Maqola A.G. Ahmedovning "Anatomiya" va "Anatomiya, fiziologiya va patologiya" darsligi, L.U.Xo'jayevaning "Lotin tili" darsligi, shuningdek "Gray's Anatomy", "Sobotta Atlas of Human Anatomy" hamda "Terminologia Anatomica" xalqaro manbalari asosida tahlil qilinadi.

Калит со'злар

Tahlillar, anatomik terminlar, tibbiyot terminlari, lingivistik tahlil, morfologik tahlil, ilmiy tahlil, lotin tili, to'g'ri talaffuz, xato talaffuz "os ischi" "os ishshi", "cribrosa", "sribroza", "incisura", "inkizura", "kribroza", "insizura", "elaksimons", "o'yma"

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ произношения анатомических терминов «os ischii» (седалищная кость), «cribrosa» (решетчатый, перфорированный) и «incisura» (вырезка), широко

используемых в анатомии. Показано, что в фонетической системе латинского языка отсутствует звук «ш», однако в современной медицинской практике он используется как фонетически упрощённый вариант произношения. В статье также разъясняется, что буква «с» перед буквой «i» произносится не как «к», а как «с» или «ц». Анализ выполнен на основе учебников А.Г. Ахмедова «Анатомия» и «Анатомия, физиология и патология», учебника Л.У. Ходжаевой «Латинский язык», а также международных источников, включая «Gray's Anatomy», «Sobotta Atlas of Human Anatomy» и «Terminologia Anatomica».

Ключевые слова

Анализы, анатомические термины, медицинские термины, лингвистический анализ, морфологический анализ, научный анализ, латинский язык, правильное произношение, неправильное произношение, «os ischii», «os ishshi», «cribrosa», «sribroza», «incisura», «inkizura», «kribroza», «insizura», «решётчатый», «вырезка».

Annotation

This article presents a scientific analysis of the pronunciation of the anatomical terms “os ischii” (ischial bone), “cribrosa” (sieve-like, perforated), and “incisura” (notch), which are widely used in the field of anatomy. It is demonstrated that the phonetic system of the Latin language does not contain the “sh” sound; however, in modern medical usage, this sound appears as a phonetically simplified variant. The article also explains that when the letter “c” is followed by the letter “i,” it is pronounced not as “k” but as “s” or “ts.” The analysis is based on A.G. Ahmedov’s textbooks “Anatomy” and “Anatomy, Physiology and Pathology,” L.U. Khojayev’s textbook “Latin Language,” as well as international sources including “Gray’s Anatomy,” “Sobotta Atlas of Human Anatomy,” and “Terminologia Anatomica.”

Keywords

Analyses, anatomical terminology, medical terminology, linguistic analysis, morphological analysis, scientific analysis, Latin language, correct pronunciation, incorrect pronunciation, “os ischii”, “os ishshi”, “cribrosa”, “sribroza”, “incisura”, “inkizura”, “kribroza”, “insizura”, “cribriform”, “notch”.

Kirish

Tibbiyot atamallari, xususan, anatomiya terminologiyasi, qadimgi yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ularning talaffuzi va yozilishi ilmiy an'analar asosida qat'iy belgilangan. Ana shunday terminlardan - “cribrosa” bo'lib u elaksimom, teshik ma'nolarini bildiradi. Bu so'zning notog'ri talaffuzi (“sribroza”

shaklida), “*incisura*” ma’nosi “o’yma” bo’lib, uning notog’ri talaffuzi (“*inkizura*” shaklida), shunday terminlardan yana biri – “*os ischii*” bo’lib u o’turgich suyagini bildiradi. So’nggi yillarda “*os ischi*” atamasining noto’g’ri talaffuzi (“*ishshi*” va “*ishchi*” shaklida) kuzatilmoqda. Ushbu maqola mazkur terminlarning lingvistik va morfologik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, to’g’ri talaffuz (“*kribroza*”, “*insizura*”, “*isxi*, “*iskxi*”) shaklini asoslab beradi.

Metodlar

Tadqiqotda komparativ-lingvistik tahlil, morfologik solishtirish, topografik-assotsiativ, Vizual (ko’rgazmali) metod, guruhli o’rganish va muloqot metodi, klinik kontekstli o’rganish metodi va etimologik tahlil metodlari qo’llanildi. Manba sifatida quyidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanildi:

1. A.G. Ahmedov “*Anatomiya*” Toshkent 2018 va “*Anatomiya, fiziologiya va patologiya*”, Toshkent, 2016.
2. Sh.A. Gadayev “*Odam anatomiyasi*”, Toshkent, 2019.
3. A.N. Baxodirov “*Odam anatomiyasi*” Toshkent 2005
4. N.Ibodov “*Anatomiya dan qisqacha lotincha-ruscha-o’zbekcha lug’at*” Toshkent 1995
5. Gray’s Anatomy. 42nd Edition, Elsevier, 2020.
6. Terminologia Anatomica (Federative International Committee on Anatomical Terminology, 2019).
7. T.L. Charlton “*Latin and Greek in Medical Terminology*”, Cambridge University Press, 2018.
8. R. Cappelli, “*Lexicon Abbreviaturarum: Dizionario di Abbreviature Latine ed Italiane*”, Milano, 1929.

Natijalar

Lotin tilida “*cribrosa*” g’alvirsimon, teshik ma’nolarini beradi. Masalan lamina cribrosa - teshikchalari bo’lgan plastinka (ethmoidale suyagida). Ammo talaffuz jihatdan bu so’zni “*sribroza*” shaklida aytiladi. Lotin tili grammatikasi qoidalariga ko’ra “*C*” harfi “*e*”, “*i*”, “*y*” unlilari oldida va “*ae*” “*oe*” diftonglari oldida tursa “*ts*” yoki “*s*” kabi, “*C*” harfi “*a*” “*u*” “*o*” unlilari oldida, undosh harflar oldida va so’z oxirida kelsa “*K*” kabi o’qiladi. Shunday ekan “*cribrosa*” so’zida “*c*” harfidan keyin “*r*” undosh harfi kelgani uchun (c + r + i brosa) bu so’z “*kribroza*” shaklida talaffuz etiladi.

Huddi shuningdek “*incisura*” o’yma, kesiq ma’nosini beradi. Bu so’z ham yuqorida aytib o’tilgan lotin tilidagi grammatik qoidalarga ko’ra “*inkizura*” emas aslida “*insizura*” yoki “*intsizura*” shaklida talaffuz etiladi.

Lotin tilidagi “*os*” – suyak, “*ischium*” esa chanoq suyagining pastki qismi ma’nosini bildiradi. “*Ischium*” so’zi qadimgi yunon tilidagi “*ischion*” so’zidan

kelib chiqqan bo'lib, unda "sh" tovushi mavjud emas. "ch" esa harf birikmasi sanalib o'zbek tilidagi "x" tovushini beradi. Demak, talaffuz jihatidan "ishshi" yoki "ishchi" shakli fonetik jihatdan noto'g'ri, chunki lotin va yunon tillarining fonologik tizimida "sh" fonemasi yo'q. To'g'ri ilmiy talaffuz "isxi" tarzida bo'lishi kerak.

A.G.Ahmedovning "Anatomiya, fiziologiya va patologiya" (2016) darsligida "os ischi" atamasi "o'turgich suyagi" deb izohlanadi va talaffuzi ko'rsatilmagan. Shu bilan birga, ayrim tibbiyot o'quv muassasalarida bu termin "ishshi" tarzida o'qitilmoqda. Darslikdagi lotin yozuvining to'g'ri shakli ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, talaffuzdagi fonetik og'ishlar og'zaki amaliyot natijasi hisoblanadi.

Xalqaro manbalarga ko'ra "Gray's Anatomy for Students" (Elsevier, 2020) asarida "ischium" (iskium) tarzida, "os ischi" esa (os iski) sifatida talaffuz etiladi. "Terminologia Anatomica" (FIPAT, 2019) rasmiy nashrida esa talaffuz belgilanmagan, biroq lotin morfologiyasi asosida "os iskii" varianti to'g'ri hisoblanadi. "Sobotta Atlas of Human Anatomy" (Elsevier, 2018)da ham shunga o'xshash ma'lumot saqlangan. Bu manbalar tibbiy-lotin talaffuzining xalqaro standart shakli "isxi", "iskii" yoki "ishchi" ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda zamonaviy tibbiyotda ishlatiladigan "tibbiy lotin" (Neo-Latin) fonetik jihatdan soddalashtirilgan tizimdir. Ingliz, nemis, rus va o'zbek tibbiy muhitida "sch" kombinatsiyasi ko'pincha "sh" tarzida talaffuz qilinadi. Shu sababli amaliy tibbiyotda "os ischi" ko'pincha "os ishi" yoki "os ishshi" tarzida aytiladi. Bu talaffuz fonetik yengillik bersada, grammatik jihatdan lotin tiliga xos emas va bu mutlaqo noto'g'ri sanaladi. Chunki lotin tilida "sch" xarf brikmasi hisoblanib u "sh" emas "sx" kabi o'qiladi.

Muhokama

Tibbiyot terminologiyasi standartlashtirilgan bo'lib, xalqaro miqyosda yagona talaffuz va yozilish qoidalari mavjud. Evropa anatomiya maktablarida (masalan, Oksford va Bolonya universitetlari) "ischium" termini "is-khi-um" tarzida talaffuz qilinadi. O'zbek tibbiy ta'limida esa fonetik moslashuv natijasida "ishshi" shakli keng tarqalgan. Bu esa morfologik ildizning buzilishiga va xalqaro anatomiya standartlaridan chetga chiqishga olib keladi. Ahmedov (2016) va Gadayev (2019) darsliklarida ham to'g'ri shakl "ischium" tarzida keltirilgan, biroq talaffuz masalasi izohlanmagan. Shu sababli, ilmiy-lingvistik asosda "isxi" shakli to'g'ri hisoblanadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "cribrosa" "incisura" va "os ischi" atamalarining to'g'ri talaffuzi "kribroza", "intsizura" va "os isxi" bo'lishi kerak. Lotin tilidagi "cribrosa" ni "sribroza" tarzida, "incisura" ni "inkizura" tarzida va "ischium" termini fonetik jihatdan "ishshi" tarzida talaffuz etilishi mutlaqo ilmiy

asosga ega emas. Bunday xatoliklar asosida ta'lim berish tibbiyotning yangi avlodlarini noto'g'ri ilm olishiga, xalqaro terminlarga aylanib ulgurgan so'zlarni xato talaffuz etishiga olib keladi. Bu esa yetishib chiqqan yosh shifokorlarni xalqaro maydonlarda mana shu kabi so'zlardan foydalangan holatlarida talaffuzlari noto'g'riligi va tushunarsizligi yaqqol ko'zga tashlanib qoladi. Natijada esa xorijiy tibbiyot mutaxasislar qarashlarida bizning shifokorlarimiz ilmsiz, saviyasiz, xalqaro tibbiy terminlardagi o'quvi nomukammal bo'lib gavdalanadi va bu orqali xorijiy mutahasislarning butun bir o'zbek tibbiyotiga qisman bo'lsada salbiy baho berishiga yo'l ochib beradi.

Lotin tili aniq talaffuzni talab etadi. Tovushlarning o'zboshimcha o'zgarishi terminlarning noto'g'ri o'zlashtirilishiga va morfologik tahlilda xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli universitet darajasidagi lotin tili va anatomiya ta'limida lotincha talaffuzning xalqaro standartlariga rioya qilish tavsiya etiladi. Tibbiy ta'limda talaffuz standartlarini yagona xalqaro normalarga muvofiqlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G. Ahmedov "Anatomiya" Toshkent 2018 va "Anatomiya, fiziologiya va patologiya", Toshkent, 2016.
2. Sh.A. Gadayev "Odam anatomiyasi", Toshkent, 2019.
3. A.N. Baxodirov "Odam anatomiyasi" Toshkent 2005
4. N.Ibodov "Anatomiyadan qisqacha lotincha-ruscha-o'zbekcha lug'at" Tohkent 1995
5. Gray's Anatomy. 42nd Edition, Elsevier, 2020.
6. Terminologia Anatomica (Federative International Committee on Anatomical Terminology, 2019).
7. T.L. Charlton "Latin and Greek in Medical Terminology", Cambridge University Press, 2018.
8. R. Cappelli, "Lexicon Abbreviaturarum: Dizionario di Abbreviature Latine ed Italiane", Milano, 1929.